

Korxonalar va tashkilotlar (2019-yil 1-mart holatiga)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 1485 ta korxonalar va tashkilotlar tashkil etildi (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz), bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 801 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2480 ta (12,4%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 22540 tani tashkil etgan.



Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1683	1610	64
 Sanoat	4806	4673	371
 Qurilish	1742	1613	101
 Savdo	6021	5590	672
 Tashish va saqlash	865	832	48
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	985	925	89
 Axborot va aloqa	361	341	15
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	529	515	9
 Boshqa turlari	6664	6441	116




Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.


2019-yilning 1-mart holatiga 23656 ta korxonalar va tashkilotlar (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 25,4% (6021 ta) savdo, 20,3% (4806 ta) sanoat, 7,4% (1742 ta) qurilish, 7,1% (1683 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,2% (985 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7% (865 ta) tashish va saqlash, 1,5% (361 ta) axborot va aloqa, 2,2% (529 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy

xizmatlar hamda 28,2% (6664 ta) boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar
kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)






+ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 22540 tani tashkil etib (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz), o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2480 ta (12,4%) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan savdo 24,8%, sanoat 20,7%, qurilish 7,2%, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7,1%, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4,1%, tashish va saqlash 3,7%, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 2,3%, axborot va aloqa 1,5%, va boshqa faoliyat turlari 28,6%ni tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, foizda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni Namangan shahri (8470 ta), Chust (1847 ta), Namangan (1571 ta), Uychi (1403 ta) va To'raqo'rg'on (1376 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (928 ta), Norin (952 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1081 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar
kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

01.03.2017 y.

• 19303 ta

01.03.2018 y.

• 20060 ta

01.03.2019 y.


• 22540 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019-yil yanvar-fevral oylarida 1485 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz), bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga ko'pdir. Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (433 ta), Chust (148 ta), Pop (124 ta), Kosonsoy (122 ta) va Uchq'o'rg'on (108 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Chortoq (63 ta), To'raqo'rg'on (66 ta) hamda Yangiqo'rg'on (68 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdo (672 ta), sanoat (371 ta), qurilish (101 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (89 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (9 ta), axborot va aloqa (15 ta), tashish va saqlash (48 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (64 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	593	100,0	684	100,0	1485	100,0
Savdo	151	25,4	150	21,9	672	45,3
Sanoat	185	31,2	181	26,5	371	25,0
Qurilish	29	4,9	47	6,9	101	6,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	23	3,9	21	3,1	89	6,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	101	17,0	73	10,7	64	4,3
Tashish va saqlash	30	5,1	27	3,9	48	3,2
Axborot va aloqa	4	0,7	13	1,9	15	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12	2,0	11	1,6	9	0,6
Boshqa turlari	58	9,8	161	23,5	116	7,8

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARI.

2019-yil 1-mart holatiga 18229 ta (dehqon va fermer xo`jaliklarisiz) tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 6013 ta, oilaviy korxonalar – 365 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 11431 ta va boshqalar 420 tani tashkil etdi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-mart holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 151 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga yoki 43,8% ga o`sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya Respublikasi, Turkiya va Qozog`iston Respublikalari hissalariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 107 tasi qo'shma korxonalar, 44 tasi esa, xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar (53 ta yoki jamiidagi ulushi 35,1%), Kosonsoy (15 ta yoki 9,9%), Pop, To'raqo'rg'on, Uychi va Chortoq (12 tadan yoki 7,9%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mingbuloq (2 ta, yoki 1,3%), Namangan va Uchqo'rg'on (5 tadan, yoki 3,3%), Norin va Yangiqo'rg'on (6 tadan, yoki 4,0%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa, mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoatda 97 tani (64,2%), savdoda 15 tani (9,9%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 13 tani (8,6%) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 11 tani (7,3%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 tani (0,7%), qurilish hamda axborot va aloqada 2 tadan (1,3%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 tani (2,6%) va sog'liqni saqlash va

ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 6 tani (4,0%) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 17 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 6 ta, Rossiya Federatsiyasi 3 ta, Janubiy Koreya, Tojikiston va Chexiya Respublikalari 2 tadan hamda Eron va Qozog'iston davlatlari rezidentlari kapitali ishtirokida 1 tadan yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi,

Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
davlatlar kesimidagi ulushi, %
(2019-yil yanvar-fevral oylari)**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat(6 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi(4 ta), qurilish(2 ta), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish(1 tadan) va boshqalar(2 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish dinamikasi, birlikda

	2018 yil yanvar-fevral		2019 yil yanvar-fevral	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	x	x	6	35,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	x	x	4	23,5
Qurilish	x	x	2	11,7
Savdo	2	100,0	1	5,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	1	5,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	1	5,9
Axborot va aloqa	x	x	x	x
Tashish va saqlash	x	x	x	x
Boshqa turlari	x	x	2	11,8



Kichik korxona va mikrofirmalar soni.


2019-yil 1-mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 18229 tani (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-mart holatiga qaraganda 14,2% ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 7248 tasi(39,8%) Namangan shahri, 1509 tasi(8,3%) Chust, 1328 tasi(7,3%) Namangan hamda 1132 tasi(6,2 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 18229 ta (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) kichik korxona va mikrofirmalarning 5565 tasi(30,5%) savdo, 4644 tasi(25,5%) sanoat, 1609 tasi(8,8%) qurilish, 1580 tasi(8,7%) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 921 tasi(5,1%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 822 tasi(4,5%) tashish va saqlash, 417 tasi(2,3%) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 321 tasi(1,8%) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2350 tasi(12,9%) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)



2019-yil yanvar-fevral oylarida 1441 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (423 ta), Chust (142 ta), Pop (120 ta), Kosonsoy (118 ta) va Uchq'o'rg'on (108 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Chortoq (58 ta), To'raqo'rg'on (66 ta), Yangiqo'rg'on (67ta) hamda Mingbuloq (72 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (672 ta), sanoatda (371 ta), qurilishda (101 ta), yashash va ovqatlanishda (89 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (62 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta), axborot va aloqada (15 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-mart holatiga 375 tani tashkil etib, ulardan 365 tasi yoki 97,3% faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 38,5% ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 48,5% yoki 177 tasi sanoat, 17,0% yoki 62 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,2% yoki 48 tasi savdo, 9,0% yoki 33 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7% yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1% yoki 4 tasi axborot va aloqa, 0,5% yoki 2 tasi qurilish hamda 9,0% yoki 33 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019-yil 1-mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa va qurilish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.:69-227-84-96